

## MA'RUZALARNI TAQDIMOT USULUDA TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

*Xojoyev Xayrulla G'ulomqodirovich,*

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali katta o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Maqolada ma'ruza, uning mazmun mohiyati hamda ta'lim-tarbiya jarayonida ma'ruzalarni taqdimot usuluda tashkil etish texnologiyalari haqida ma'lumotlar bayon etilgan.*

*Kalit so'zlar: ma'ruza, auditoriya, taqdimot, videonamoyish, animatsiya, talaba, ta'lim-tarbiya jarayoni.*

Ma'ruza-katta hajmdagi o'quv materialini nisbatan uzoq vaqt davomida monologik bayon etishdir.

Ma'ruza, hikoya, tushuntirish – o'quv materialini bayon qilish usuli - verbal (lot.t. Verbalis – og'zaki) usul hisoblanadi. Odatda bu usullar namoyish, videousul, ko'rgazma usullari bilan qo'shilgan holda olib boriladi. Ular o'quvchilarning bilimini o'zlashtirish, eslab qolish va tushunishga qaratilgan retseptiv faoliyatini ta'minlab beradi va o'qituvchi tomonidan tayyor holda bayon etiladi.

Bugungi kunda ma'ruza o'tkazishda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish maqsadida passiv metodlar bilan bir qatorda faol metodlarni qo'shib olib borish orqali ma'ruza metodini bir qancha quyidagi turlari amaliyotda qo'llanilmoqda:

- muammoli ma'ruzalar;
- jadallashtirilgan ma'ruzalar;
- ma'ruza – konferensiyalar;
- konspektsiz ma'ruzalar – fikrni so'z bilan ifodalash;
- mualliflik ma'ruzalari;

- ma`ruza –munozaralar;
- qaytar aloqa texnikasi qo`llangan ma`ruzalar;
- aniq vaziyatni tahlil qilish ma`ruzalari.

Taqdimot (Prezentatsiya) - ma`ruza mavzusiga oid matn, gipertekst materiallar, kompyuter animatsiyalari, grafiklar, video, musika va ovozlarni (barchasi bir vaqtda bo`lishi shart emas) birgalikdagi majmuasi va taqdimoti tushuniladi. Prezentatsiya syujet, senariy va ma`lum tarkibga ega bo`lishi zarur.

Taqdimotning oddiy ma`ruzadan farqi uning interaktivligidadir. Taqdimot maqsadi va auditoriya (tinglovchilar toifasi)ga bog`liq holda turli xususiyatlarga ega bo`ladi va quyidagi turlarga bo`linadi:

1. Ma`ruzada mavzuni to`liq kiritish va o`quvchi-talabalar tomonidan ma`ruza mazmunini maksimal darajada o`zlashtirishlariga imkon yaratuvchi taqdimot.

2. Mavzuni mustaqil o`rganish uchun tayyorlangan taqdimot.

3. Biror bir tadbirni yoki hodisani sharhlash uchun tuzilgan taqdimot. Taqdimot multimedia va boshqarish elementlaridan tashkil topgan bo`ladi.

4. Videonamoyish uchun yaratilgan taqdimot. Bunda interaktiv elementlar ishtirok etmaydi. Taqdimot ob`ekti haqidagi videorolik, ayrim hollarda ob`ekt haqida matn va audio yozuvdan iborat bo`lishi mumkin.

5. Elektron reklamalar uchun taqdimot. Ma`lumot hajmini qiska bayon qilish maqsadida multimedia elementlarini minimal darajada qo`llab yaratiladi.

6. Mobil telefonlar va smartfonlar uchun taqdimotlar.

*Taqdimotning maqsadi* - talabalarni ma`ruzachi bilan birgalikda mavzu bo`yicha fikrlashga va mavzuni tahlil qilishga undashdan iborat. Shu sababli, taqdimot auditoriya uchun oson qabul qilinadigan, talabalarda mavzuga qiziqish uyg`otadigan va diqqatini tortadigan ko`rinishda tayyorlanishi zarur. Taqdimotni keng auditoriyaga taqdim etishdan oldin uni chuqur tahlil qilish, mumkin qadar prezentatsiya materiallarida xato va kamchiliklar bo`lmasligi kerak. Mavzuni taqdimot qilishda tinglovchilarni barchasi ma`ruza matnida keltirilgan

ma'lumotlar bilan bir fikrda bo'lmashliklari, ya'ni, taqdim etiladigan ma'lumotlarni to'g'ri qabul qilmasliklari ham mumkin. Shuningdek, taqdimot materiali shunday tayyorlanishi lozimki, tinglovchi ma'ruzachi qo'shimcha tushuntirish qilmasdanoq mavzuning mohiyatini tushunib olishi mumkin bo'lsin.

Ma'ruza matni tushunarli va oson o'qiladigan ko'rinishda bo'lishi lozim. Ayrim hollarda, ma'ruzachi ma'lum vaqtga auditoriyadan chiqqanda ham, taqdimot materiallaridan masala mazmuni tushunarli, taqdimot materiallaridagi barcha yozuvlar auditoriyaning istalgan joyidan erkin o'qiladigan bo'lishi zarur. Agar taqdimotdagi yozuvlar oxirgi qatorda o'tirgan talabalar uchun yaxshi ko'rinmaydigan yoki o'qish qiyin bo'ladigan kichik o'lchamdagi harflarda berilgan bo'lsa, talabalarning diqqati bo'linadi va ma'ruza samaradorligi kamayadi.

Taqdimot vaqtini rejalashtirishda tinglovchilar tomonidan savollar berilishi, savollarga javob, tinglovchilarni qisman dam olishlari uchun vaqt (har qanday mavzu bo'yicha uzluksiz 20 daqiqadan ortiq taqdimot qilinganda talabalarni mavzu materiallarini qabul qilish darajasi susayadi) ham hisobga olinishi zarur.

Taqdimot oxirida tarqatma materiallar berilishi ham ko'zda tutilsa yanada yaxshi bo'ladi. Bu talabalarni mustaqil ravishda ushbu mavzuga yana qaytishlariga va ma'ruzadagi materiallarni eslab qolishlariga imkoniyat yaratadi.

Taqdimotni rejalashtirishda dastlab asosiy maqsad va vazifalar aniqlab olinishi va taqdimot rejasining nazorat varaqasi ishlab chiqilishi zarur.

Taqdimotning nazorat varaqasi quidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

1. Tinglovchilar bilishlari, eslab qolishlari uchun prezentatsiya maqsadi va vazifasi aniq belgilab olinadi.

2. Taqdimotda taqdim etiladigan asosiy ma'lumotlar, mavzuning tayanch iboralari yoki asosiy mazmunini yorituvchi shakllar, sxemalar, jadvallar va boshqalar aniqlanadi.

3. Taqdimotda ma'lumotlarni taqdim etish ketma-ketligi tuziladi.

4. Taqdimotda foydalaniladigan uquv-vizual materiallar tanlanadi.

5. Taqdimotda taqdim etiladigan materiallar hajmi tahlil qilinadi. Material juda katta hajmda bo'lmashligi kerak.

6. Mavzu bo'yicha vizual materiallar namoyish etilganda, mavzuni mustahkamlash uchun zarur bo'lgan hayotiy misollar keltiriladi.

7. Mavzu materiallarini namoyish etish texnik vositalarini tanlash, ularni boshqarish ketma-ketligi belgilanadi.

8. Taqdimot 80 daqiqaga mo'ljallanishi lozim.

Taqdimotni samarali tashkil etish bo'yicha quyidagi tavsiyalar berish mumkin:

1. Ma'ruzachining "nafaol" ma'ruza o'qish vaqti 20-30 daqiqadan oshmasligi lozim.

2. Auditoriyaga savol bilan murojaat qiling. Savollarga javob berish uchun talabalarga savol javobiga yaqinroq tushuntirishlar orqali imkoniyat yarating, lekin savolni to'liq javobini o'zingiz yoritmang.

3. Taqdimot vaqtida bahs, munozara-muhokama hosil bo'lishiga sharoit yarating. Auditoriya tinglovchilarini ikki guruhga ajratib, mavzu bo'yicha ularning fikrlarini biling, guruh sardorlarini bir-biriga o'z fikrlarini tushuntirishlariga sharoit yarating. Yakunida ushbu masala bo'yicha o'z fikringizni bildirib, xulosalang.

4. Auditoriyada mavzu bo'yicha muammoli vaziyat hosil qiling. Dastlab talabalarni mustaqil ishlashlariga imkon bering va bir necha talabaning muammo bo'yicha fikrlarini biling. Keyin muammo yechimini kiriting.

5. Barcha materiallarni ma'ruza shaklida taqdim etmang.

6. Interaktiv uslubning "Kichik guruhlarda ishlash" texnikasidan foydalaning. Mavzuning asosiy masalalarini talabalar o'zlari ochib berishlari maqsadida, auditoriyaga savollar bilan murojaat qilingish lozim.

7. Mavzu bo'yicha xulosa qiling. Savol - javoblarga vaqt qoldirish maqsadga muvofiq.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ismailova Z.K. Pedagogka. Darslik. – Toshkent, Iqtisod-molya, 2008. – 172 b.
2. Ishmuxamedov R.J. va boshq. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, “Iste’dod” jamg’armasi, 2008.
3. Dexkanova M.U. Kasb ta’limi metodikasi. O’quv qo’llanma. – Toshkent, ToshTYMI. – 2013. - 148 bet.
4. Hakiimova M.F. Kasbiy pedagogika. O’quv qo’llanma. – Toshkent, “Fan va texnologiyalar”, 2007.